

Sobirova Muxlisa Shamsiddin qizi
BuxDU 1-bosqich tayanch doktoranti
m.sh.sobirova@buxdu.uz
88 860-18-08

Annotatsiya. Ushbu maqolada somatizm komponentli o'zbek xalq paremalari tahlilga tortiladi. Ko'z somatizmi ishtirokidagi maqollarning semantik xususiyatlari ochib beriladi. Paremlar tarkibida kelib, qanday semalarni namoyon etishi ko'rsatiladi. Qaysi paremik birliklarda yakka o'zi qo'llanishi va qanday o'rinlarda frazeologik ibora tarkibida kelib yangi ma'no kasb etishi ko'rsatib beriladi.

Annotation This article analyzes Uzbek folk proverbs with a somatism component. The semantic features of proverbs with the participation of eye somatism are revealed. It is shown what semes it represents in the structure of proverbs. It is shown in which paremic units it is used alone and in which places it acquires a new meaning when it is part of a phraseological expression.

Аннотация В данной статье анализируются узбекские народные пословицы с компонентом соматизма. Раскрываются семантические особенности пословиц с участием соматизма глаза. Показывается, какие семы он представляет в структуре пословиц. Показывается, в каких паремических единицах он употребляется самостоятельно, а в каких местах приобретает новое значение, входя в состав фразеологического выражения.

Kalit so'zlar: parema, somatizm, ko'z, frazeologik birlik, sema, metafora, ko'chma ma'no

Keywords: parema, somatism, eye, phraseological unit, sema, metaphor, figurative meaning

Ключевые слова: парема, соматизм, глаз, фразеологизм, сема, метафора, переносное значение

Kirish O'zbek xalqi purma'no so'z va hikmatlarga, o'git-u naqlarga boy xalq. Ajdodlarimiz azal-azaldan o'zining butun hayotini, turmush tarzini, mehnat va mashaqqatlarini, mag'lubiyat va muvaffaqiyatini, rasm-rusumlarini maqol va matallarda, naql va iboralarda aks ettirib keladi.

Inson maqol yoki turg'un birikmani yaratar ekan, eng avvalo, o'ziga yaqin va tanish bo'lgan birliklardan, so'zlardan foydalanadi. Masalan tana a'zolari, o'zini o'rab turgan tabiat hodisalari, osmon jismlari va hokazo. Shuning uchun, har bir tilning leksik qatlamida tana a'zolarining nomlari eng qadimiy birliklar sanaladi va ular paremik birliklar tarkibida faol qo'llanuvchi nomlar hisoblanadi.

Somatizmlar – inson va hayvon tana a'zolari nomlari ishtirok etgan paremik birliklarni tahlil qilish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish bugungi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz quyidagi maqolada ko'z somatizmi ishtirok etgan paremik birliklarning semantik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Asosiy qism Ko'z so'zi umumturkiy so'z bo'lib, tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. U ko'p ma'noli so'z bo'lib, O'TIL da uning to'rt ma'nosi ko'rsatilgan:

Ko'z – 1. Tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. 2. Nazar, nigoh; qarash. 3. Ko'rish qobiliyati. 4. ko'chma. Ba'zi narsalarning biror belgisi bilan ajralib, ko'zga o'xshab ketadigan qismi, bo'lagi.

Ko'z so'zi tilimizda paremalarni ham shakllantirishda ishtirok etuvchi so'z-komponentlardan biri sanaladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Bu a'zo ko'rish sezgisining lokal a'zosi bo'lib, u nafaqat atrof-muhitni idrok qilishda asosiy rol o'ynaydi, balki inson his-tuyg'ularini ham o'zida ifodalay oladigan moddiy a'zo sanaladi. Inson ko'zlar orqali tashqi dunyo obyektlari haqidagi deyarli barcha ma'lumotlarni qabul qiladi. Shu sababli, ushbu a'zo tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etishning asosiy vositasi sanaladi. Insonning qo'rquvi, ajablanishi, nafrati, muhabbati, qayg'usi ayniqsa ko'zlarda yaqqol namoyon bo'ladi. *Ko'z* maqollarda faol tarzda qo'llanuvchi somatizm hisoblanadi. Ko'z somatizmi maqollarda idrok, kuzatish, mulohaza yuritish, anglash bilan bog'liq turli semalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari ziyraklik, fahm-farosat singari tushunchalar bilan ham bog'liqlik hosil qiladi. Ko'zga tanadagi eng zaif va nozik organ sifatida qaraladi. Shuningdek, ko'zlarga samimiylik va nekbinlik ramzi sifatida qaraladi.

Ishning o'zini bilguncha, ko'zini bil.

Mehnatning ko'zini topgan, Boylikning o'zini topar.

Aqlning ko'zi –naqlning ko'zi singari paremlar tarkibida kelib, metafora asosida ko'chma ma'no hosil qiladi va *uddaburonlik, ishbilarmonlik* kabi semalarni ifoda etishga xizmat qiladi.

Shuningdek ushbu somatizm ayrim paremlar tarkibida *ko'zi och, ko'zi to'yimas, ochko'z kabi* frazeologik birlik sifatida qo'llanadi va *badnafslilik, ochko'zlik* semalarini namoyon etadi: Och ko'zni tuproq to'ydirar./ Gadoning xurjuni to'lsa ham, ko'zi to'yimas./

Shu bilan birga ba'zi maqollar tarkibida ushbu somatizm *aql-hush* ma'nosida ham qo'llanganiga guvoh bo'lamiz: Yosh yigitning ko'zi bilan qiz olma. Ushbu maqolda *yosh yigitning ko'zi* deganda, aqli, tafakkuri nazarda tutilmoqda.

Ochning ko'zi ekmakda, to'qning ko'zi hikmatda./ Qassobning ko'zi – semizda, chanqoqning ko'zi – qimizda./ Ochning ko'zi – nonda, to'qning ko'zi – tomda kabi paremlarda ushbu somatizm *o'y-xayol, kuchli xohish-istak* ma'nolarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Sevgi, mehr-oqibat, muhabbat singari mavzulardagi maqollarda *mehr* tushunchasi ko'z somatizmi bilan bog'lab talqin qilinadi. Jumladan:

Sevgi degan ikki ko'zda./ Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar./ Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas kabi paremik birliklarda fikrimiz isbotini ko'ramiz. Ya'ni bu yerda ko'zga mehr-oqibat manbasi sifatida qaralganiga guvoh bo'lamiz.

Hurmat-ehitirom ma'nosini ifoda etish uchun ushbu somatizm maqollar tarkibida *ko'zdan issiq, ko'z ustida* kabi frazeologik butunlik ko'rinishida qo'llanadi va biror-bir shaxs yoki narsaning qadrliligi, aziz va hurmat-izzatga loyiqligini ifoda etadi: Mehmon joyi – ko'z ustida./ Mehmon ko'zdan issiq.

Tilimizdagi *qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq yoki ko'z chiqarmoq* kabi iboralar ham paremik birliklar tarkibida uchrashiga guvoh bo'lamiz va bunda ushbu birlik orqali *nojo'ya xatti-harakat qilib qo'yomoq* ma'nosi ifodalanadi: Toza yasovul ko'z chiqarar.

Xulosa. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ko'z somatizmi ayrim maqollarda yakka holda, ayrim maqollarda esa ma'lum bir frazeologik butunlik ko'rinishida qo'llanadi va turli-tuman semalarni namoyon etish uchun xizmat qiladi. Somatizm komponentli o'zbek xalq paremlari mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yaxshi xulq va yomon xulq, mehmondo'stlik, donolik va nodonlik, mehnatsevarlik va uddaburonlik kabi mavzuiy guruhlarda bo'lib, ularda xalqning tafakkuri, milliy-mental xususiyatlari yaqqol bo'y ko'rsatib turad

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

2. Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т., 1990. – 528 б.
3. Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.

